O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI JIZZAX SHAHAR HOKIMI QARORI

2023 - yil 20 - fevral 44-3-55-Q/23 Jizzax shahar hokimligi

Jizzax shahar hududidagi Markaziy dehqon bozori va savdo shaxobchalari yaqinida harakat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolar bilan bog‘liq yo‘l-transport xodisalarini oldini olish maqsadida taqiqlovchi belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldag 172-sonli qarorining ijrosini taminlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 12-apreldagi 172-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax shahar hududidagi Markaziy dehqon bozori va savdo shaxobchalari yaqinida harakat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolar bilan bog‘liq yo‘l-transport xodisalarini oldini olish maqsadida Jizzax shahar Markaziy dehqon bozori hududidan o‘tuvchi Temiryo‘lchilar ko‘chasining 0,2-0,9 km. oralig‘ida 3.27 taqiqlovchi (to‘xtash taqiqlangan) yo‘l belgisi o‘rnatish hamda 7.2.2 axborot ishora (amal qilish masofasi) belgisi 70 metr masofa amal qilish belgilari o‘rnatilsin.

3. Shahar ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (B.Abullayev), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Qobilov)ga shahar hududidagi maktablar va maktabgacha ta’lim muassasalari joylashgan ko‘chalarda ikki tomoniga belgilangan tartibda yo‘l belgilari o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Shahar IIO FMB yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (B.Abullayev)ga shahar hududidagi maktablar va maktabgacha ta’lim muassasalari joylashgan ko‘chalarda transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta’minlash choralarini ko‘rish vazifasi topshirilsin.

5. Shahar moliya bo‘limi (A.Abdujalilov)ga yo‘l belgilarini o‘rnatish xarajatlari uchun mahalliy budjetdan mablag‘ ajratilib berish vazifasi topshirilsin.

6. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari X.Onalbayev zimmasiga yuklatilsin.

Shahar xokimi **K.Xolmurodov**